

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TALIM VAZIRLIGI**

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**



**MAKROIQTISODIY TAHLIL VA PROGNOZLASHTIRISH  
fanidan kurs ishi yozish bo'yicha  
USLUBIY KO'RSATMA**

**5230100 – “Iqtisodiyot” (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)  
ta'lim yo'nalishi talabalari uchun**

**Guliston - 2021**

Bakalavriat ta’lim bosqichining 5230100 - «Iqtisodiyot» (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun «Makroiqtisodiy tahlil va prognozlashtirish» fanidan kurs ishi yozish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatma. Tuzuvchi O.T.Sattorqulov. - Guliston, 2021. 34 bet.

Mazkur uslubiy ko‘rsatma 5230100- “Iqtisodiyot” (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun “Makroiqtisodiy tahlil va prognozlashtirish” fanidan kurs ishini tayyorlash va himoya qilish jarayoniga uslubiy jihatdan yordam beradi.

Amaldagi davlat ta’lim standartlari va namunaviy o‘quv rejasida oliv ta’limning bakalavriat bosqichi 5230100 - “Iqtisodiyot” (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) ta’lim yo‘anilishida tahsil olayotgan talabalar “Makroiqtisodiy tahlil va prognozlashtirish” fani bo‘yicha kurs ishi yozishlari belgilangan. Uslubiy ko‘rsatmada kurs ishi mavzularini tanlash, adabiyotlar bilan tanishish, kurs ishini yozish, ularni rasmiylashtirish va uni himoya qilish jarayonlari batafsil bayon etilgan (2021 yil avgustdagি 1-sonli O‘quv-uslubiy Kengash qarori).

**Taqrizchilar:**

professor A.Mamatov

## **KIRISH**

Oliy ta’lim bakalavriat bosqichining 5230100- “Iqtisodiyot” (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan 3-4 bosqich talabalari amaldagi namunaviy va ishchi o‘quv rejalar asosida “Makroiqtisodiy tahlil va prognozlashtirish” fanidan kurs ishi tayyorlashlari va himoya etishlari ko‘zda tutilgan.

“Makroiqtisodiy tahlil va prognozlashtirish” fanidan kurs ishi yozish orqali quyidagi maqsadlarga erishish ko‘zda tutiladi: talabalarning real sektor korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil etish bilan bog‘liq iqtisodiy faoliyatni o‘rganishi uchun xuquqiy-me’yoriy hujjatlar, ilmiy va o‘quv adabiyotlarni izlab topishi, o‘rganib chiqishi hamda ularda keltirilgan fikr va dalillarni tizimli tarzda jamlay olishi va zaruriy xulosalar qilishi; mustaqil ta’lim olishni faollashtirish; mavjud nazariy va amaliy materiallarni chuqur iqtisodiy tahlil qila olishi va bu borada etarlicha malaka va ko‘nikmalarini shakllantirish; bitiruv malakaviy ishini yozishga tayyorgarlik ko‘rish. Kurs ishini yozish va himoya qilish jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat:

1. Mavzu tanlash.
2. Foydalanish uchun zarur bo‘lgan bosma va elektron adabiyotlarni izlab topish va ularning ro‘yxatini tuzish.
3. Kerakli hujjatlar asosida ma’lumotlarni tayyorlash va yig‘ish.
4. Kurs ishi rejasini tuzish.
5. Rejaga mos bo‘lgan savollarni batafsil o‘rganish ma’lumotlarni tahlil qilish.
6. Olgan bilim va ko‘nikmalarini o‘rganish va tahlil natijasida batafsil, mantiqan to‘g‘ri bayon qilish.
7. Kurs ishida keltirilgan ma’lumotlarni keng va tushunarli tahlil qilish.
8. Ilmiy rahbar tomonidan ko‘rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etish va takliflarni e’tiborga olish.
9. Kurs ishini to‘g‘ri rasmiylashtirish.
10. Kurs ishini himoya qilish.

## **MAVZU TANLASH**

Kurs ishi yozishdagi asosiy masalalardan biri, talabalar tomonidan uning mavzusini to‘g‘ri tanlashdir. Hamma fanlarda bo‘lganidek “Makroiqtisodiy tahlil va prognozlashtirish” fanidan yoziladigan kurs ishi mavzusi ham talabalar tomonidan fan o‘qituvchisi yoki kafedra tomonidan avvaldan taqdim etilgan mavzular ro‘yxatidan tanlanadi (1-ilovaga qarang).

Talabalarning tanlagan mavzulari bir xil bo‘lib qolmasligi lozim. Talabalarning mavzu tanlash imkoniyati keng bo‘lishi uchun, tayyorlangan mavzular ro‘yxati kurs ishi yozishi ko‘zda tutilgan talabalar soniga nisbatan ikki barobar ko‘p bo‘lishi tavsiya etiladi.

Kurs ishi mavzulari ro‘yxati har yili kafedra tomonidan yangi va dolzarb muammolarni yoritishga asos bo‘ladigan mavzular bilan yangilanib turilishi va o‘quv yilining 1 oktyabriga qadar tanishish uchun talabalarga berilishi kerak.

Talabalar mavzu tanlashda o‘kituvchilar bilan maslahatlashish-lari mumkin. U ro‘yxatdagi mavzulardan hohlaganini tanlash xuqu-qiga ega. Bundan tashqari, talaba kurs ishi mavzulari ro‘yxatida bo‘lmagan, lekin real sektor korxonalaridagi muammolarini ochishda muhim ahamiyat kasb etgan mavzularni taklif qilishi mumkin.

Talaba albatta o‘zi tanlagan mavzuning ob’ekti sifatida biror-bir tarmoq, soha, korxonani tanlashi va ushbu soha yoki tarmoq korxonalari misolida real sektor faoliyatini tashkil etish va uning samaradorligini oshirish borasida mavjud muammo va kamchiliklarni iqtisodiy tahlil usul va vositalaridan foydalangan holda oolib berishi va ularni hal etish bo‘yicha ilmiy va amaliy takliflar berishi lozm.

Har bir talaba bitta mavzu tanlash huquqiga ega. Mavzu tanlangandan so‘ng, kurs ishi yozish masalasida albatta ilmiy rahbar bilan maslahatlashib olish kerak.

## **ADABIYOTLAR BILAN TANISHISH VA ULAR BILAN ISHLASH**

Kurs ishi bajarishda talabaning darslik, o‘quv qo‘llanma, ilmiy-amaliy jurnallar, ommaviy gazetalar, me’yoriy-huquqiy hujjatlar va internet saytlari bilan tanishishi tavsiya qilinadi. Bunda Prezidentimizning Farmon va Qarorlari, asarlari, O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, Hukumat qarorlarini va boshqa me’yoriy hujjatlarni alohida o‘rganib chiqish maqsadga muvofiqdir. Ushbu ma’lumotlar bilan vazirlik va davlat idoralarining «www.lex.uz» va «www.gov.uz» kabi maxsus saytlardan foydalangan holda ham tanishish mumkin.

Talaba o‘zi tanlagan mavzuga mos adabiyotlar bilan tanishib chiqqandan so‘ng, uni o‘rganishni boshlashi kerak. Buning uchun mavzuga oid adabiyotlarni yig‘ib bo‘lib, ulardan foydalanish tavsiya qilinadi.

Kurs ishi yozishda adabiyotlardan foydalanish ikki bosqichga bo‘linadi. Birinchi bosqich - kurs ishi mavzusini tanlashda va rejasini tuzishda adabiyotlardan foydalanish bo‘lsa, ikkinchisi - kurs ishini yozish davomida adabiyotlardan foydalanishdir. Umuman olganda, adabiyotlardan foydalanishning ikkala bosqichi ham bir-biri bilan o‘zaro bog‘lanib ketadi.

Kurs ishi mavzusini tanlash va rejasini tuzishda adabiyotlardan foydalanish juda katta ahamiyat kasb etadi. Tanlangan mavzuni qanchalik dolzarbli, muammoli ekanligini talaba, albatta, kerakli kitob, jurnal, internet saytlari va boshqa manbalar orqali bilishi kerak bo‘ladi. Shuningdek, ushbu mavzu bo‘yicha reja tuzishda, uning ahamiyatliligi, xuquqiy asoslari etarliligi, dolzarbli, muammoliligi va ularni bartaraf etish mumkinligini ilmiy, nazariy va amaliy adabiyotlardan foydalangan holda o‘rganib chiqadi.

Kurs ishini yozishda mavzuga oid adabiyotlarni chuqurroq o‘rganishga va ularni tahlil qilish hamda ulardagi mavzuga oid fikrlarni solishtirish jarayonida, ma’lum fikrlarni yoqlashni va ba’zilarini inkor qilishni hamda mavzuga oid muammolarni bartaraf etishda qaysi adabiyotda keltirilgan fikrlar maqsadga muvofiqligini aniq ta’kidlab o‘tish kerak bo‘ladi. Adabiyotlarda keltirilgan fikrlarni kurs ishida aniq va ravon keltirish lozim. Shuningdek, talaba kurs ishi materiallarini tahlil qilishda e’lon qilingan statistik ma’lumotlardan keng foydalanishi kerak. Kurs ishi

materiallarini tahlil qilish va uning mazmunli bo‘lishida statistik ma’lumotlar katta ahamiyatga ega.

“Makroiqtisodiy tahlil va prognozlashtirish” fanidan kurs ishi yozish uchun foydalanish uchun tavsiya etilayotgan adabiyotlar, elektron jurnallar va internet saytlari 2-ilovada ko‘rsatilgan.

### **KURS IShINI YoZISH TARTIBI**

Kurs ishining umumiyligi hajmi qo‘l yozmada va elektron ko‘rinishda 30-35 varaqdan kam bo‘lmasligi kerak. Ilovalar ko‘rsatilgan hajmga kirmaydi. Titul varag‘i belgilangan shakl bo‘yicha rasmiylash-tiriladi (4-ilovaga qarang).

Ishda me’yoriy hujjatlar va orfografik koidalar bo‘yicha kabul qilingan shartli qisqartirishlar kiritishga ruxsat beriladi. Masalan: y.- yil, yy.— yillar, m.s.- ming so‘m, mln. s. - million so‘m, mak-maksimal va boshqalar. Lekin «Iqtisodiyot» ta’lim yunalishi bo‘yicha yozilgan kurs ishida, moliyaviy, iqtisodiy terminlarda kamdan-kam qisqartma so‘zlar ishlatiladi. Ushbu holatni inobatga olib, kurs ishida qisqartma so‘zlarni kamroq ishlatish tavsiya etiladi.

Kurs ishida ba’zi so‘z birikmalari qayta-qayta kelishi ko‘zda tutilsa, ushbu so‘z birikmalarini birinchi yozilishida to‘liq yozib, so‘z birikmasi tugashi bilan qavs ochib. ushbu so‘z birikmasini qisqartma ko‘rinishini keltirish kerak. So‘ng, ushbu so‘z birikmasi qaytarilsa, qisqartma ko‘rinishini yozish mumkin. Masalan, aktsiyadorlik jamiyatasi (AJ), ma’suliyati cheklangan jamiyat (MChJ), qo‘shma korxona (QK) va boshqalar.

Mundarija kurs ishi tuzilishini belgilab beruvchi qism bo‘lib, kurs ishini boshlanish qismida keltiriladi va unda kurs ishi tarkibida bo‘lishi lozim bo‘lgan qismlar, ya’ni kirish. asosiy qism savollari, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati, xulosa va ilovalar ko‘rsatiladi.

Masalan, talaba “Agrar sohada innovatsion rivojlanish va uning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo‘llari» mavzusida kurs ishi tanladi.

Talaba mavzu bo‘yicha reja tuzish uchun avvalo unga mos adabiyotlarni o‘rganishi kerak. Misol uchun, ushbu mavzu bo‘yicha quyidagicha reja tuzilishi mumkin (5-ilovaga qarang).

Tuzilgan reja bo‘yicha kurs ishini yozish tartibi tushuntirib beriladi.

Kirish qismi - kurs ishining boshlang‘ich qismi bo‘lib, ishning asosiy mazmuni bayon qiladi. Unda kurs ishi mavzusining dolzarbligi asoslanadi, izlanishning maqsadi va vazifalari, izlanish ob’ekti, predmeti hamda mavzuning ahamiyati va mohiyati ochib beriladi. Shu bilan birga, kurs ishi yozish uchun asos bo‘lgan amaliy ma’lumotlar manbalari aks ettiriladi.

Mavzuning dolzarbligini yoritish barcha ilmiy ishlarda majburiy talabdir. Muallif mavzuni tanlar ekan uning ilmiy salohiyati va kasbiy tayyorgarligi albatta bu mavzuning mazmunini to‘liq tushuntirib berishga va uning ilmiy-amaliy ahamiyatini ko‘rsatib berishga etarli bo‘lishi lozim. Kurs ishi mavzusining dolzarbligini yoritishda quruq nazariy va ilmiy asoslanmagan gaplardan imkon qadar qochishga harakat qilish lozim. Mavzuning dolzarbligini ko‘rsatuvchi asosiy jihat va to‘liq bir sahifada ko‘rsatish etarli bo‘ladi.

Mavzuning dolzarbligini asoslashda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlaridan, ma’ruzalaridan va etuk iqtisodchi olimlar asarlaridan o‘rinli foydalanish talab etiladi Mavzuning dolzarbligi asoslab berilganidan so‘ng, tadqiqotning maqsadidan kelib chiqib, ushbu maqsadga erishish uchun aniq vazifalarni (3-5 ta vazifalarni) belgilab olish kerak bo‘ladi.

Bular odatda quyidacha ifodalanadi:

- o‘rganish;
- ochish;
- tasvirlash;
- belgilash;
- aniqlash;
- uslubiy ishlab chiqish;
- tayyorlash.

Kurs ishini bajarish chog‘ida yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan vazifalar doirasida tadqiqotlarni amalga oshirish, pirovardida kurs ishini bajarishdan ko‘zlangan maqsadga erishilishini ta’minlaydi.

Masalan, “Agrar sohada innovatsion rivojlanish va uning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo‘llari» mavzusida bajarilayotgan kurs ishining tadqiqot ob’ekti va predmetini aniqlashtiradigan bo‘lsak, u holda mazkur kurs ishi mavzusining tadqiqot ob’ekti – bu agrar ishlab chiqarish

korxonalarining ishlab chiqarish faoliyati bo'lsa, agrar korxonalar va boshqa tuzilmalar o'rtaida vujudga keluvchi iqtisodiy munosabatlar tadqiqot predmetini aks ettiradi. Kurs ishining kirish qismida mahalliy va xorijiy olimlar va mutaxassislarning mazkur kurs ishi mavzusi doirasida olib borgan va olib borayotgan ilmiy izlanishlari ustida qisqacha to'xtalib o'tish, kurs ishi ilmiy ahamiyatining ortishiga olib keladi. Kurs ishining kirish qismi ko'pi bilan 2-3 varaq hajmda bo'lishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Kirish qismdan so'ng, asosiy qism keladi, ya'ni u bir nechta savollardan iborat bo'lib, bunda tanlangan kurs ishi mavzusining mazmun va mohiyati batafsil ochib beriladi.

Kurs ishining har bir bo'limi olim va mutaxassislarning mavzuga doir ilmiy xulosalari, davlat va mahalliy hokimiyat idoralarining sohaga oid me'yoriy hujjatlari va ko'rsatmalari asosida yoritilishi talab etiladi. Kurs ishida ilgari bajarilgan mustaqil ishlarning natijalari yoki boshqa mualliflarning (ilmiy ma'ruzalar va maqolalari, hisob-grafika ishlari va loyihalari, albatta, nomlari ko'rsatilgan holda) ishlari aks ettirilishi yoki ulardan foydalanish mumkin.

**Birinchi savolda** mavzuning nazariy jihatlari mazmuni, mohiyati, ahamiyati yoritiladi. Ya'ni turli iqtisodiy maktablar vakillari bo'lgan iqtisodchi olimlar asarlarining qiyosiy tahlili amalga oshirilishi, davriy nashrlarda chop etilgan ilmiy maqolalardan foydalaniishi, mavzuga oid asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalarida keltirilgan nazariy fikrlarniig qiyosiy tahlili amalga oshirilishi mumkin. Shuningdek, korxonalarda ishlab chiqarishni iqtisodiy rivojlantirishning mohiyati, mazmuni, zarurligi yoritiladi. Bunda mavzuning xuquqiy asoslарini ham ochib berish mumkin. Korxonalarda ishlab chiqarishni iqtisodiy rivojlantirishning huquqiy asoslari o'rganilib, bunda O'zbekiston Respublikasi qonun tizimida real sektor korxonalarini iqtisodiy faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligining qonun osti xujjatlari, qarorlari, xalqaro amaliyotda qo'llanuvchi umumiylar, me'yorlar, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining bandlari o'rganiladi. Kurs ishi rejasida ko'rsatilgan

asosiy qismning 1-savolini ko‘pi bilan 8-10 varaq hajmda yoritish tavsiya etiladi.

**Ikkinchchi savolda** mavzuga oid amaliyot holati tahlilini amalga oshirish va tahlil natijalariga asoslangan holda tegishli xulosalarni shakllantirishdan iboratdir. Bunda jadvallar, diagrammalar, rasmlar shaklida amaliyot ma’lumotlaridan keng foydalanish. Ularni batafsil tahlil etish talab etiladi. Tahlil jarayonida davriy nashrlarda chop etilgan ilmiy maqolalarga, hukumat idoralariniig rasmiy internet saytlarida keltirilgan ma’lumotlarga, malakaviy amaliyot davomida to‘plangan amaliyot ma’lumotlariga asoslanish tavsiya etiladi. Har bir jadval, diagramma va rasmlarning manbalari aniq ko‘rsatilishi talab etiladi. Ishlab chiqarishni tashkil etish bilan bog‘liq iqtisodiy ma’lumotlar dinamikasini o‘rganishda kamida oxirgi 3-4 yillik ma’lumotlar tahlil qilinadi. Ushbu savolga javobni ko‘pi bilan 10-12 varaq hajmda yozish tavsiya etiladi.

**Uchinchi savolda** mavzuga oid muammolar yuzasidan zamonaviy asarlarda tadqiq etilayotgan mavzuni takomillashtirish va rivojlantirish yuzasidan bildirilgan fikrlarni umumlashtirgan holda, ularga nisbatan talabaning mustaqil fikrlarini bildirish va ilg‘or xorijiy tajribalarni bayon etish va ularni mamlakatimizda qo‘llash imkoniyatlari bo‘yicha takliflar kiritish talab etiladi. Ya’ni, O‘zbekiston Respublikasida makroiqtisodiy jarayonlarni tartibga solish borasida mavjud muammolar atroflicha bayon qilinadi. Talaba muammolarni aniqlash bilan bir vaqtda ularni bartaraf etish borasida shaxsiy takliflarini keltiradi. Ushbu savolga javobni ko‘pi bilan 9-10 varaq hajmda yozish tavsiya etiladi.

Xulosa qismda mavzuni o‘rganish davomida talaba tomonidan amalga oshirilgan tahlil jarayonida shakllantirilgan xulosalar aks ettiriladi. Mavzuga oid zamonaviy asarlarda bayon etilgan tadqiq etilayotgan mavzuni takomillashtirish yuzasidan takliflar keltirib, shunga asosan talaba o‘z fikrini bayon etadi. Xulosa qismini ko‘pi bilan 2-3 varaq xajmda yozish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar qismida darslik, o‘kuv qo‘llanma, uslubiy qo‘llanma, jurnal, tezislар to‘plami, huquqiy-me’oriy hujjatlar va internet saytlarining asosiy ma’lumot ko‘rsatkichlari (chop qilingan joyi va yili, nashriyot va boshqalar) ro‘yxati keltiriladi. Barcha ilmiy ishlarda,

shuningdek, kurs ishida ham foydalanilgan ma'lumotlar manbai va adabiyotlar ro'yxatini keltirish majburiy shartlardan biridir (3-ilovaga qarang). Foydalanilgan adabiyotlar qismini ko'pi bilan 2-3 varaq hajmda keltirish tavsiya etiladi.

## **KURS IShINI RASMIYLAShTIRISHNING UMUMIY TALABLARI**

Kurs ishi berilgan topshiriq asosida, shaxsan talaba tomonidan bajariladi. Talaba tanlangan qarorning to'g'riliqiga va uning topshiriqqa muvofikligiga, kurs ishida ko'chirmachilik holatining yo'qligiga javob beradi.

Kurs ishi ta'lim to'g'risidagi me'yoriy hujjatlarda talab etilganidek tartibli rasmiylashtirilgan, xatosiz, aniq va tushunarli tilda yozilgan bo'lishi kerak. Kurs ishini yozishda matnda «men» so'zi o'rniga «biz» so'zini yozish tavsiya etiladi.

Kurs ishi qo'lyozma yoki elektron tarzida A4 o'lchamdag'i oq qog'ozda rasmiylashtirilgan bo'lishi shart. Kurs ishi qo'lyozma tarzida yozilganda, ko'k rangli ruchkada yozilishi tavsiya qilinadi, boshqa rang ruchkalarni ishlatishga yo'l qo'yilmaydi. Bo'limlar, jadvallar, rasmlar raqamini va nomlarini ham boshqa rangli ruchkada yozishga yo'l qo'yilmaydi. Ishda keltiriluvchi jadvallar, diagrammalar, rasmlar kompyuterda tayyorlanib, printerda chop etilgan (qog'oz A4 (210x297mm) shaklda) holda kiritilishi mumkin. Kurs ishida tuzatishlarga ruxsat berilmaydi.

Kafedraning roziligi bilan talaba kurs ishini o'zi tanlagan xorijiy tillardan (ingлиз, немис, француз, рус) birida ham bajarishi mumkin. Xorijiy tilda bajarilgan ishga davlat tilidagi annotatsiya ilova etiladi va himoya vaqtida tarjima ta'minlanadi.

Kurs ishini yozishda varaqning chap tarafida 3 sm, pastda 2 sm, tepada 2 sm, o'ngda 1 sm joy qoldirish tavsiya qilinadi. (6-ilovaga qarang) bunda bir varaqda 28-30 qator yozuv bo'lishi zarur. Kurs ishi qo'lyozma tarzida yozilganda varaq tagiga yo'l-yo'l qog'oz ("zebra") qo'yib yoziladi. Varaqning o'ziga matn yozish uchun to'g'ri chiziqlar chizish yoki printerda chiziqlar chop etilgan varaqlarga yozishga yo'l qo'yilmaydi.

Kurs ishining barcha betlari titul betidan oxirgi betigacha tartib bilan

raqamlanadi. Birinchi bet titul varag‘i hisoblanib, unga raqam ko‘yilmaydi, keyingi betga “2” raqami qo‘yiladi va hokazo. Tartib raqami betning pastki tomonining o‘rtasiga qo‘yiladi.

Qismlarning nomlanishi bosh harf bilan yoziladi. Qism ichidagi nomlanishlar xatboshidan kichik harflar bilan yoziladi. Asosiy qism ichidagi savollarning sarlavhalarini yozishda bo‘g‘in ko‘chirishga ruxsat berilmaydi. Sarlavha oxirida nuqta ko‘yilmaydi. Sarlavhaning tagiga chizib yozishga ruxsat etilmaydi, bir sarlavhadan oldin arab raqami bilan raqamlar qo‘yiladi va raqamdan so‘ng nuqta qo‘yiladi. Agarda savol ichida savollar keltirilsa, masalan, birinchi savol ichida bir nechta savollar bo‘lsa “1.1.” ,“1.2.” shaklda yoziladi.

Kirish, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar boshlanishida raqam qo‘yilmaydi. Kurs ishining har bir qismi yangi betdan boshlanadi. Kirish, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va asosiy qism savollari bir xilda, varaqning yukori qismining o‘rtasiga yozish tavsiya etiladi.

Illyustratsiya (rasm)lar ko‘rish uchun qulay tarzda joylashti-rilishi kerak. Agar kurs ishini burish lozim bo‘lsa, uni soat strelkasi bo‘ylab burish kerak (7-ilovaga qarang). Barcha rasm (grafik, chizma, diagramma, fotosurat)lar, “rasm” so‘zi va bo‘lim bo‘yicha ketma-ket arab raqamlari bilan belgilanadi. Ilovalarda keltirilgan suratlar bundan mustasno. Rasm raqami bo‘lim va rasm raqamidan iborat bo‘lib, nuqta bilan ajratiladi, masalan “1.2-rasm” va izoh beruvchi yozuv pastga yoziladi.

Raqamli materiallar jadval ko‘rinishida rasmiylashtirilishi lozim. Jadvalni rasmiylashtirish namunasi 8-ilovada ko‘rsatilgan. Har bir jadval sarlavhaga ega bo‘lishi kerak. Sarlavha bosh harf bilan boshlanadi. Sarlavaha ostiga chizilmaydi.

Jadvalning sarlavhasi uning yuqorisiga, o‘rtadan yozilishi tavsiya etiladi. Jadval grafalarining sarlavhalari bosh harflar bilan, sarlavhachalar esa, agar ular sarlavha bilan bitta gapni tashkil etsa, kichik harflar bilan, agar ular mustaqil bo‘lsa, katta harflar bilan boshlanishi kerak. Jadvalning bosh qismini diogonal bo‘yicha bo‘lish mumkin emas.

Ko‘plab grafalarga ega bo‘lgan jadvalni qismlarga bo‘lish va bir qismni ikkinchi qismdan keyin joylashtirishga ruxsat etiladi.

Bo‘limlar doirasidagi jadvallar izchil, ketma-ket arab raqamlari bilan

belgilanadi. Masalan: “1-jadval”, “2-jadval” va hokazo.

Jadvalning biror qismi boshqa betga yozganda, «jadval» so‘zi va uning tartib raqami bir marta jadvalning bиринчи qismi ustida ko‘rsatilib, qolgan qismlar ustiga «davomi» degan so‘z yoziladi.

Matndagi manbalarga havola(«snoska»)larni satr osti eslatmalarida keltirish lozim. Havola har bir betda arab raqamida ketma-ket tartib bilan keltirilipsh lozim. Keyingi betda esa yana boshidan tartib bilan ilova qo‘yilishi tavsiya qilinadi.

Havolalarni keltirish tartiblari:

- hujjat va ta’rifni tasdiqlash uchun iqtibos keltirganda:
- zamonaviy adabiyotlar va birlamchi manbalar bo‘yicha iqtibos keltirganda:

- adabiyotlardan va boshqa manbalardan biror muammo, xulosa yoki takliflardan iqtibos keltirganda:

- davlat arboblari. olimlar va mutaxassislar fikrlaridan iqtibos keltirganda:

- statistik ma’lumotlar va to‘plamlardan iqtibos keltirganda:

- me’yoriy-xuquqiy hujjatlardan iqtibos keltirganda:

- bir betda iloji boricha 3 tadan ko‘p iqtibos keltirish tavsiya qilinmaydi:

- va boshqa holatlarda.

Illyustratsiyalarga qilingan havolalar sarlavhaning oxirigi so‘ziga qo‘yiladi (9-ilovaga qarang). Matnda barcha jadvallarga havola berilishi kerak.

Har bir ilova yangi betning ung yuqori burchagida “Ilova” so‘zi bilan boshlanadi. Agar kurs ishida bittadan ko‘p ilova bo‘lsa, ular ketma-ket arab raqamlari bilan belgilanadi. Masalan, “1-ilova”, “2-ilova” va hokazo.

Ilovalarni alohida rasmiylashtirganda, titul varag‘ida kurs ishi mavzusining nomi ostida katta harflar bilan “ilovalar” so‘zi yoziladi.

Kurs ishida foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati 3-ilovaga muvofiq rasmiylashtiriladi. Kurs ishi mavzusi bo‘yicha asosan so‘nggi 5-7 yil ichida nashr qilingan adabiyotlardan foydalanish tavsiya etiladi.

## **KURS IShINI HIMOYA QILISH**

Dekanat tomonidan kafedra bilan kelishilgan holda kurs ishlarini topshirish va himoya qilish reja jadvali ishlab chiqiladi va kurs ishini topshirish va himoya qilish muddatlari kafedra mudiri tomonidan o‘rnatilgan tartibda amalga oshiriladi.

Talaba tayyor bo‘lgan kurs ishini “Iqtisodiyot” kafedrasи kabinet mudiriga topshiradi. Kabinet mudiri yoki kotib ushbu kurs ishini ro‘yxatga olish kitobida ro‘yxatdan o‘tkazib, kurs ishi titul varag‘iga ro‘yxatdan o‘tkazilgan sana va ro‘yxat tartib raqamini yozadi. So‘ng ilmiy rahbarga topshiradi. Ilmiy rahbar kurs ishini ro‘yxatdan o‘tgan sanadan boshlab bir hafta ichida ko‘rib chiqib, uni talab darajasida bajarilganligiga ishonch bildirgandan so‘ng, ishni o‘z taqrizi (10-ilovaga qarang) bilan birga kafedraga taqdim etadi. Ilmiy rahbar tomonidan taqdim qilingan taqrizda talabaning faolligi, mavzuning dolzarbligi, maqsadi va vazifasi, qabul qilingan qarorlardagi yangiliklar, keltirilgan malumotlarning tahlili, chiqarilgan xulosa va takliflarning asosliligi va kurs ishining boshqa ijobiy tomonlari tavsiflanadi. Shu bilan birga, xato va kamchiliklari ham ko‘rsatiladi. Natijada, taqriz oxirida xulosa qilinadi. ya’ni kurs ishi himoyaga kuyilishi yoki qilmasligi ko‘rsatib o‘tiladi.

Kurs ishida qo‘pol xato-kamchiliklar bo‘lmasa, himoyaga tavsiya etiladi. Talaba kursatilgan xato-kamchiliklarni asoslash yoki to‘g‘rilash uchun kurs ishi himoyasigacha taiyorlanishi kerak. Agarda kurs ishida xato-kamchiliklar ko‘p bo‘lsa, ularni bartaraf etgandan so‘ng, himoyaga tavsiya etilishi ko‘rsatilgan bo‘lsa, u holda xato-kamchiliklar bartaraf etilgandan sung, ikkinchi marta yana himoyaga tavsiya etish uchun taqriz yoziladi. Agarda talaba kurs ishini sababsiz o‘z vaqtida topshirmasa, kamchiliklar to‘liq bartaraf etilmasa, u holda ilmiy rahbar kurs ishi “himoyaga ko‘yilmaydi”- deb yozma xulosa beradi. Kotiba taqriz yozilgan kurs ishini topshirilgan kun bilan ro‘yxatdan o‘tkazib qo‘yishi kerak. Kurs ishlarini ro‘yxatga olish kitobida har bir guruhnинг alohida betga rasmiylashtirish tavsiya etiladi. Kurs ishini himoya qilish kuni va himoyada katnashuvchi komissiya tarkibi kafedra majlisida belgilanadi. Kurs ishi himoyasida qatnashuvchi komissiya tarkibi 3-5 ta a’zodan iborat

bo‘ladi. Kurs ishi himoyasida komissiya tarkibidan kamida 3 ta azo bo‘lishi talab etiladi. Xar bir talaba uchun kurs ishi himoyasi 20-25 daqiqa (10-15 daqiqagacha talaba ma’ruzasi, 5-10 daqiqagacha savol-javob) davom etadi. Talaba o‘z ma’ruzasida mavzu to‘g‘risida qisqacha tushuncha berishi, ya’ni mavzuning dolzarbligi, o‘rganilgan muammolar, xulosa va taklif haqida to‘xtalishi zarur. Shuningdek, taqrizda ko‘rsatilgan kamchiliklar haqida to‘xtalishi ham talab etiladi. Himoyadan so‘ng, komissiya a’zolari yopiq majlis o‘tkazib, talabalarning ishini baholash qarorini qabul qiladi.

Komissiya a’zolari quyidagicha qaror qabul qilishlari mumkin:

- kurs ishini himoya qilganligini bildiruvchi baho quyilishi;
- “himoyaga kiritilmadi”;
- “himoyaga kelmadi” bo‘lishi;
- himoyada “qoniqarsiz” baho olgan bo‘lishi;
- qayta himoya qilish uchun muddat berilishi;
- boshqa mavzuda qayta ishlab, himoya qilish tavsiya qilinishi.

Uzrli sabab bilan kurs ishini belgilangan muddatda himoya qilmagan talabalarga fakultet dekanatining ruxsati bilan, komissiyasining ishi yakunlanishiga qadar, boshqa muddatlarda himoya qilishga ruxsat beriladi.

“a’lo” va “yaxshi” baholangan kurs ishlari kafedra tomonidan turli tanlov va ko‘rgazmalarga tavsiya etiladi.

## Namunaviy kurs ishi mavzulari

1. Asosiy makroiqtisodiy modellarning qiyosiy tahlili.
2. O‘zbekiston Respublikasining makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari tahlili.
3. Inflyatsiya jarayonlari tahlili.
4. Yalpi talab- yalpi taklif modeli vositasida milliy iqtisodiyot tahlili.
5. Pul-kredit siyosati va ulardan foydalanish amaliyoti tahlili.
6. Inflyasiyani targetlash siyosati.
7. IS-LM modelida byudjet- soliq va pul-kredit siyosati.
8. O‘zbekiston Respublikasining Butunjahon savdo tashkilotiga a’zo bo‘lib kirishi masalalari.
9. Pul-kredit va byudjet-soliq siyosatining to‘lov balansiga ta’siri.
10. O‘zbekiston Respublikasi valyuta siyosati.
11. IS-LM-VR modeli va byudjet-soliq va davlatning pul-kredit siyosati xarakterini aniqlash.
12. O‘zbekiston Respublikasining Harakatlar strategiyasi: makroiqtisodiy barqarorlik va investitsion faollik.
13. Kapitalning mobilligi darajasini fiskal va monetar siyosatning samaradorligiga ta’siri.
14. Monetar ekspansiyaning qisqa va uzoq muddatdagi oqibatlari.
15. Davlat qarzi o‘sishining makroiqtisodiy oqibatlari.
16. Valyuta kursi omillari va ularning iqtisodiy rivojlanishga ta’siri.
17. Valyuta kursi rejimlarining turlari va ularning makro-iqtisodiy samaradorligi.
18. Mustaqillik yillarda O‘zbekiston Respublikasi rivojlanishining makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari tahlili.
19. O‘zbekiston iqtisodiyotidagi inflyatsiya jarayonlari tahlili.
20. O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlarini qiyosiy tahlili.

## **Kurs ishini yozish uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar ro‘yxati Asosiy adabiyotlar**

1. Abel A.B., Bernanke B.S., Croushore D. Macroeconomics. 8 th edition. USA: Amazon, 2013.
2. 56. Edward Shapiro. Macroeconomic analysis. Fifth edition. Oxford. Copyright 2015
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisga Murojaatnomasini keng jamoatchilik o‘rtasida targ‘ib etishga bag‘ishlangan ilmiy-ommabop qo‘llanma. – T.: «Ma’naviyat», 2018. 112–113-betlar.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasini o‘rganish va keng jamoatchilik o‘rtasida targ‘ib etishga bag‘ishlangan ilmiy-ommabop qo‘llanma [Matn]. – T.: «Ma’naviyat», 2019. – 312 bet.
5. 2017 – 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o‘rganish bo‘yicha Ilmiy-uslubiy risola. T.TDIU -2017 y.
6. Maxmudov N.M., Asqarova M.T., Umarov I.Yu. Makroiqtisodiy tahlil va prognozlash. Darslik. T.: Fan va texnologiyalar», 2014 – 338 b.
7. L.M. Tashpulatova. Makroekonomicheskiy analiz. Uchebnoe posobie. T.: UMED, 2006, 280 b.
8. T.Z.Teshabaev, Z.M.Otaqo‘zieva, Makroiqtisodiyot. Ma’ruzalar matni. T.: TATU, 2015, 480 b.
- 9.T.U.Bobokulov, N.G.Karimov, U.A.Abdullaev. Xalqaro valyuta kredit munosabatlari. Ma’ruzalar matni. T.: TMI, 2015, 244 b.
10. R.T.Shomurodov. Monetar siyosat. Ma’ruzalar matni. T.: TMI, 2015, 151 b

## **Qo‘shimcha adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi G‘G‘ «Xalq so‘zi», 2018 yil, 29 dekabr. № 271–272 (7229–7230)
2. Mirziyoev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi». O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganing 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagи ma’ruza. – T.: «O‘zbekiston», 2017. 18-b. (48 b.)
3. Mirziyoev Sh.M. Bilimli avlod – buyuk kelajakning, tadbirkor xalq – farovon hayotning, do‘stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidirG‘G‘ «Xalq so‘zi», 2018 yil 8 dekabr.
4. Monetar siyosatning 2019 yil va 2020–2021 yillar davriga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2018 yil. 100-bet.
5. Mamatov B.S., Xujamkulov D.Yu., Nurbekov O.Sh. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. Darslik. – T.: «Iqtisod-Moliya», 2014. 80-b. (608-b.)
6. Maro‘anova E.A., Shapiro S.A. Makroekonomika. Ekspress kurs.: uchebnoe posobie- M.: KPORUS, 2010.-302 s.
- 7.. Dornbush R. —Macroeconomics - Boston. Mcgraw-Hill, 2001.,- 574 p.
8. Statisticheskiy ejegodnik regionov Uzbekistana. 2017. – T.: Goskomstat Uzbekistana. 2018. - 130 str.

### **Internet saytlari**

1. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
2. [www.gov.uz](http://www.gov.uz)
3. [www.prizident.uz](http://www.prizident.uz)
4. [www.stat.uz](http://www.stat.uz)
4. [www.ser.uz](http://www.ser.uz)
5. [www.uza.uz](http://www.uza.uz)
6. [www.ifmr.uz](http://www.ifmr.uz)
7. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
8. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida» gi №PF-4947 sonli Farmoni. G‘G‘Xalq so‘zi. 2017 yil 8 fevral .
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagи “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmonining 1-ilovasi “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”. Lex.uz.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. G‘G‘ Xalq so‘zi. 2017 y., 23-dekabr.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. G‘G‘ Xalq so‘zi. 2018 y., 29-dekabr.
1. Xotamov I., Madraximova G. “Real sektor korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil etish”. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2018 yil. - 201 bet.
2. Xasanov R., X.Asatullaev, A.Suvonqulov, X.Xakimov. Real sektor iqtisodiyoti va uni prognozlash. O‘quv qo‘llanma.T.: Iqtisod-moliya, 2013 yil, - 192 bet.
3. Yuldasheva Sh.M. Sanoat tarmoqlari texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma.- MCHJ RAM-S 2007, - 315 b.
8. Xamraeva S.N. Qishloq infratuzilmasini innovatsion rivojlantirish. Monografiya - Toshkent: 2017 – 73 bet.
4. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. Toshkent - 2017 y.
5. “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali. № 1, fevral, 2018 yil [www.interfinance.uz](http://www.interfinance.uz)
6. Altuxov A.I., Nechaev V.I. Ekonomicheskie problemo‘ innovatsionnogo razvitiya zernoproduktovogo podkompleksa Rossii. – M.: Izdatelstvo Nasirddinova V.V., 2015. – 477 s.
7. Vidfild P. Innovatsionno‘e protsesso‘ kak ob’ekt upravleniya ekonomiceskim razvitiem. M.:NIITs, 1993. - 236 s.

8. Ijevskiy I.I. Otsenka effektivnosti innovatsionnoy deyatelnosti predprinimatelstva G‘G‘Nauchno‘y vestnik NLTU Ukraina. - 2010. - Vo‘p. 20.4.- S. 160—167.
9. Ionov M. Regulirovanie investitsionnoy i innovatsionnoy deyatelnosti G‘ M. Ionov G‘G‘ Ekonomist. - 2013. - №5. - S. 36-43.
10. Kondratev, N.D. Bolshie tsiklo‘ kon‘yunkturo‘ i teoriya predvideniya. Izbranno‘e trudo‘. - M.: Ekonomika, 2013. - 767 s.
11. Kravchenko N.P. Obosnovanie prioritetno‘x innovatsiy v rastenievodstve i otsenka ix effektivnosti (teoriya, metodologiya, praktika) G‘G‘Avtoref. dis. na sois. uch. step. d.e.n.. Maykop, 2011.
12. Kulagin A., Loginov V. Strukturno‘e sdvigi i innovatsionno‘y protsess G‘ A. Kulagin, V. Loginov G‘G‘ Ekonomist. - 2013. - №5. - S. 37-46.
13. Mumladze R.G, Platonov A.V. Effektivnost upravleniya innovatsiyami v selskom xozyaystve: monografiya. M. LitagentKnorusc. 2014. -120 s.
14. Novikov V.M. Organizatsionno-ekonomicheskiy mexanizm innovatsionnogo razvitiya selskogo xozyaystva. G‘G‘Avtoreferat dissertatsii na soiskanie uchenoy stepeni doktora ekonomiceskix nauk. Voronej - 2013
15. Porter E. Maykl. Konkurentsija: per.s anglG‘ M.: ID»Vilyams», 2005. - 608 s.
16. Ryabova A.I. Otsenka rezultatov ispolzovaniya innovatsionno‘x texnologiy v otrasli rastenievodstva v usloviyax importozameheniya. G‘G‘Upravlenie ekonomiceskimi sistemami: elektronno‘y nauchno‘y jurnal. (108) UEkS, 2G‘2018.
17. Savenko V.G. Formirovanie sistemo‘ osvoeniya innovatsiy v selskom xozyaystve: Teoriya, metodologiya, praktika: dissertatsiya ... doktora ekonomiceskix nauk: 08.00.05. - Moskva, 2005. - 338 s.
18. Santo B. Innovatsiya kak sredstvo ekonomiceskogo razvitiya G‘ B. Santo - M.: Progress, 2012. - 296 s.
19. Tvis B. Upravlenie nauchno-texnicheskimi novovvedeniyami. M.: Ekonomika, 1989.- 281 s.
20. Ushachev I.G. Innovatsionnaya deyatelnost v agrarnom sektore ekonomiki Rossii G‘Pod red. I. G. Ushacheva, I. T. Trubilina, E. S. Ogloblina, I. S. Sandu. M.: Kolos S, 2007. – 350 s.

21. Shumpeter Y. Teoriya ekonomiceskogo razvitiya. M.- Yuniti-DANA, 2001.
22. La - Pierre P.T. Social Chandge- N.Y., 1965. - P. 107.

### **Internet saytlari**

23. [www.gov.uz](http://www.gov.uz)–O‘zbekiston Respublikasi Davlat hokimiyati portali
24. [www.press-service.uz](http://www.press-service.uz)–O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Matbuot xizmati rasmiy sayti
25. [www.cer.uz](http://www.cer.uz) – Iqtisodiy tadqiqotlar Markazining rasmiy sayti
26. [www.uzreport.com](http://www.uzreport.com) – biznes axborotlari portali
27. [www.eurasianews.com](http://www.eurasianews.com) – Evro Osiyo tadqiqotlar Markazining rasmiy sayti
28. [www.stat.uz](http://www.stat.uz). O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi rasmiy sayti.
29. [www.interfinance.uz](http://www.interfinance.uz) – Internet nashriyoti
30. [www.InternetNews.com](http://www.InternetNews.com)– yangiliklar serveri.
31. [www.iqtisodiyot.uz](http://www.iqtisodiyot.uz) Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. Ilmiy-elektron jurnal.

4-ilova

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi  
Guliston davlat universiteti**

**“Iqtisodiyot” kafedrasи**

**“Makroiqtisodiy tahlil va prognozlashtirish” fanidan**

**KURS IShI**

**MAVZU: AGRAR SOHADA INNOVATsION RIVOJLANISh VA  
UNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OShIRISh YO‘LLARI**

**Bajardi: 4-kurs 53-15-guruh**

**Talabasi T. Ismatov**

**Ilmiy rahbar: dots. O.Raimberdieva**

**Guliston – 20\_\_\_**

## **MUNDARIJA**

Kirish.....	3
1. Agrar sohada innovatsion rivojlanishning nazariy asoslari.. ..	5
2. Agrar sohada innovatsiyalar va intellektual mulkdan foydalanish samaradorligini oshirish yo‘llari.....	11
3. Qishloq xo‘jaligida innovatsion texnologiyalarni iqtisodiy baholash tizimlarining tahlili.....	24
4. Agrar sohaga innovatsiyalarni joriy etish istiqbollari.....	31
Xulosa va takliflar.....	38
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	41

6-ilova

Kurs ishini yozishda chapdan 3 sm., yuqoridan 2 sm., pastdan 2 sm.,  
o‘ngdan 1 sm. joy qoldiriladi.

2 sm.

1sm.

3 sm.

2 sm.

**Respublikada 2016-2020 yillarda qishloq xo‘jaligi ekin maydonlarini kengaytirish  
va mahsulot ishlab chiqarishni ko‘paytirish prognoz ko‘rsatkichlari**

Qishloq xo‘jaligi ekinlari	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2020 y. 2015 y.ga nisb. O‘zgarish	Q, –	%da
<b>Maydoni, ming getktar</b>									
Paxta	1 285,5	1 255,0	1 221,0	1 187,0	1 151,0	1 115,0	– 170,5	86,7	
Boshqoli don	1 329,5	1 329,5	1 319,5	1 304,5	1 289,5	1 279,5	– 50,0	96,2	
Kartoshka	80,3	85,3	92,5	100,5	108,8	116,3	Q 36,0	144,8	
Sabzavotlar	192,0	204,6	222,7	243,0	264,0	283,0	Q 91,0	147,4	
Mevazor bog‘lar	261,9	264,4	268,0	272,0	276,1	279,9	Q 18,0	106,9	
Ozuqa ekinlari	309,1	316,1	326,1	337,3	348,9	359,4	Q 50,3	116,3	
Moyli ekinlar	14,3	16,2	19,0	22,1	25,4	28,3	Q 14,0	197,9	
Tokzorlar	144,0	145,5	147,8	150,3	152,9	155,2	Q 11,2	107,8	

\* qayta ekish va lalmi erlarni hisobga olgan holda.


*Manba: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 29 dekabrdagi PQ-2460-sonli “2016-2020 yillarda qishloq xo‘jaligini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori asosida tuzilgan.*

8<sup>1</sup>- ilova  
1-jadval

**Uzbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsulotining  
tarmoklar buyicha tarkibi  
(joriy narxlarda, mlrd. sum)**

	1995y.	2000y.	2005y.	2010y.	2015y.	2017y.*
<b>I. YaIM, jami</b>	<b>302,8</b>	<b>3 255,6</b>	<b>15 923,4</b>	<b>62 388,3</b>	<b>171808,3</b>	<b>254043,1</b>
shu jumladan: Yalpi kushilgan diymat	263,0	2 848,0	14 233,3	56 671,4	156731,0	219 250,7
Maxsulotlarga sof <small>solishlar</small>	39,8	407,6	1 690,1	5 716,9	15 077,3	34 792,4
<b>II. Yalpi kushilgan <small>livmat</small></b>	<b>263,0</b>	<b>2 848,0</b>	<b>14 233,3</b>	<b>56 671,4</b>	<b>156 731,0</b>	<b>219 250,7</b>
Qishlok, o'rmon va baliq xo'jaligi	85,1	978,5	4 192,8	11 201,0	28 672,2	43 149,8
Sanoat <small>(qurilishni ko'shgan</small>	73,1	658,6	4 142,0	18 875,3	51 646,7	74 876,1
Xizmatlar	104,8	1 210,9	5 898,5	26 595,1	76 412,1	101 224,8


Izox. Manba: <sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi rasmiy sayti, www.stat.uz.




**2-rasm.Iqtisodiyot real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlashning  
asosiy yo'naliishlari**

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Давлат Статистика қўмитаси расмий сайти, www.stat.uz.

$8^2$ -ilova



**3-rasm. 2016 yilda O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari (2015 yilga nisbatan foizda)<sup>2</sup>**



**4-rasm.Respublikada qishloq xo‘jaligi rivojlanishining asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari, foizda**

<sup>2</sup> <http://www.aza.uz/oz/politics/zbn-respublikasi-vazirlar-ma-kamasining-mazhlisi-t-ris-15-01-2017>

## Matndagi manbalarga havola(«snoska»)larni satr osti eslatmalarida keltirish tartiblari<sup>1</sup>

Mamlakatimizda bozor munosabatlarining rivojlanishi raqobatning kuchayishiga olib kelmoqda va mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan raqobatbardoshlikni oshirishning bozor mexanizmlari va dastaklarini shakllantirish zaruratini keltirib chiqarmokda. Shu nuqtai nazardan milliy iqtisodiyotimizning barcha tarmoqlarida, ayniqsa qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida raqobatbardoshlikni oshirish dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmokda.

Ma’lumki, har bir tarmoqning raqobat ustuvorligi ishlab chiqarishning ilmiy-texnologik darajasi, mehnat resurslarining malakasi va ularning yangi bilimlar hamda innovatsiyalarga moslashishi orqali belgilanadi.

Shu boisdan, respublika iqtisodiyotini erkinlashtirish va modernizatsiyalash sharoitida agrar sektorni tizimli va uzlusiz taraqqiyotini ta’minlash uchun uning tarmoqlarida innovatsion faollikni jadallashtirish, zamonaviy agrotexnologiyalarni izchillik bilan joriy etish asosida samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada Respublikamiz Prezidenti Sh.Mirziyoev “Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g‘oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi. Innovatsiya – bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo‘lsak, uni aynan innovatsion g‘oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak”, deb ta’kidlaganlar<sup>3</sup>.

Mazkur kurs ishi aynan agrar sohada innovatsion rivojlanish va uning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo‘llarini nazariy va amaliy jihatdan o‘rganish, mazmun mohiyatini ohib berishga qaratilganligi bilan iqtisodiyotni modernizatsiya qilish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

<sup>3</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномаси. 2017 ийл 22 декабрь.

## **Matndagi manbalarga iqtibos tartiblari**

1930-yillarda Y. Shumpeter tomonidan innovatsiya tushunchasi kiritildi, va u mahsulot ishlab chiqarish, sotish, etkazish jarayonlarida yangi yoki takomillashtirilgan texnik, texnologik, tashkiliy xarakterdagi qarorlarni qo'llash oqibatida mumkin bo'lgan o'zgarishlarni bildirar edi [4.116.]. Shuningdek, o'zgarishlar nuqtai nazaridan innovatsiyalarga La Perre, Yu.Yakovets, F. Valenta, L. Voldachkova va boshqalar ta'rif berib, "innovatsiya - boshlang'ich holatdan yangi holatga o'tish yo'li bilan xo'jalik ichki tuzilmasida sodir bo'lgan har qanday o'zgarish" yoki "ijodiy g'oyaning rivojlanishi va uni tayyor mahsulot, jarayon yoki tizimga aylanishi" deb qarashadi [5.323.]. E.Mensfeld, B. Santo, B.Tviss va boshqa xorijiy olimlar tomonidan innovatsiya jarayon sifatida talqin qilinib, g'oya va ixtirolardan amaliy foydalanish orqali o'z xususiyatlariga ko'ra eng yaxshi mahsulot va texnologiyalarning yaratilishiga olib keladigan ijtimoiy - texnik - iqtisodiy jarayon, deb ta'rif beriladi. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, ushbu ta'riflarda g'oya va kashfiyotlarning iqtisodiy mazmunini izohlovchi omillar hamda ularning manbalari ko'rsatilmaganligi tufayli innovatsiya tushunchasining tushunarsizroq (noaniq) ta'riflanishiga olib kelgan. Innovatsiyalarni tatbiq etishga davomiyligi 50-60 yil bo'lgan katta tsikllar nazariyasini asoslab bergen, kon'yunktura tsikllarining modellarini ishlab chiqqan olim N.D.Kondratev katta hissa qo'shgan. U yangi tsiklga o'tish to'planib qolgan ixtirolarni joriy etish uchun sharoit yaratish imkonini beradigan kapital ne'matlar zahirasini kengaytirish bilan bog'liq ekanligini isbotladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

4. Шумпетер Й. Теория экономического развития. М.- Юнити-ДАНА, 2001.
5. Видфилд П. Инновационные процессы как объект управления экономическим развитием. М.:НИИЦ, 1993.

**Guliston davlat universiteti Ijtimoiy-iqtisodiy fakulteti Iqtisodiyot yo‘nalishi 4-kurs talabasi Ismatov To‘lqinning  
“Agrar sohada innovatsion rivojlanish va uning iqtisodiy samaradorligini  
oshirish yo‘llari” mavzusidagi yozilgan  
kurs ishiga  
TAQRIZ**

Ushbu kurs ishi kirish, asosiy qism, xulosa va takliflar va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib unda agrar sohada innovatsion rivojlanish va uning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo‘llari o‘rganilgan, ma’lumotlar tahlil qilingan va tegishli xulosalar bayon qilingan. Kurs ishi jami 42 betdan iborat bo‘lib, 2 ta jadval, 2 ta diagramma ma’lumotlari, 24 ta foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati keltirilgan.

Talaba tomonidan kirish qismida mavzuning dolzarbliги eng so‘ngi ma’lumotlar bilan izohlab berilgan. Innovatsion rivojlanishning iqtisodiy samaradorligi bayon qilingan.

Mavzuning asosiy qismida agrar sohada innovatsion rivojlanish va uning iqtisodiy samaradorligi adabiyotlardan foydalangan holda nazariy asoslab berilgan, statistik va tahliliy ma’lumotlar keltirilgan.

Mavzuning xulosa va takliflar qismida har bir berilayotgan xulosani iqtisodiy samarasni izohlangan va echimlari to‘g‘risida bayon etilgan.

Shu o‘rinda talaba tomonidan yozilgan kurs ishining ijobiy tomonlari sifatida quyidagilarni ko‘rsatsa bo‘ladi:

Birinchidan, mamlakatimizda agrar sohani innovatsion rivojlantirishning zaruriyati boy manbalar orqali ochib berilganligi, eng so‘ngi adabaiyotlardan foydalangan holda yangi statistik ma’lumotlarni tahlil qilgan;

Ikkinchidan, mavzuga oid iqtisodchi olimlarning nazariy fikrlari etarlicha o‘rganilgan holda bayon etilgan, qishloq xo‘jaligida zamonaviy yondoshuvlarni ko‘rsatib beraolgan;

Uchinchidan xorij tajribasidan hamda internet materiallaridan oqilona foydalanaolgan holda mavzu bayon etilgan.

Yuqoridagi ijobiy natijalar bilan birgalikda ayrim juziy xatolar uchraydi. Masalan, kurs ishi hajmi 5-6 varaq ko‘p, orfografik va stilistik xatolar mavjud. Tahlil jarayonida diagramma va grafiklardan foydlanganda yanada mavzu boyigan bo‘lar edi.

Biroq ushbu qayd etilgan kamchiliklar mavzuning bayon etilishiga va mazmunning yo‘qolishiga aslo ta’sir etmaydi.

Kurs ishi talab darajasida yozilgan deyishga asoslarimiz bor. Talaba yuqorida ko‘rsatilgan kamchiliklarni kelgusi tadqiqot ishlarida takorlanishiga yo‘l qo‘ymaydi deb o‘ylayman va kursi ishini himoyaga tavsiya etaman.

**Ilmiy rahbar:**

**dotsent O.Rayimberdieva**

## **Uslubiy ko‘rsatmani tayyorlashda foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasi. 2018 yil 28 dekabr. [www.uza.uz](http://www.uza.uz)
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” PF-4947-sonli Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 fevraldagagi “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori G‘G‘ Xalq so‘zi, 2017 yil 18 fevral
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2018 yil – Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalari va texnologiyalarni qo‘llab –quvvatlash yili davlat dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5308 sonli Farmoni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 maydagagi “Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha qo‘sishimcha chora –tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoni.

- 
- 7.A.Norkulov, G. Gayratov «Moliya» fanidan kurs ishini bajarish bo‘yicha uslubiy kursatma. Toshkent, TMI, 2007 y.
  6. X.Jamolov va boshqalar. «Davlat byudjeti» fanidan kurs ishini bajarish bo‘yicha uslubiy tavsiyalar. Toshkent, TMI, 2001 y.
  7. T.Jo‘raev va D.Xakimov. «Iqtisodiyot nazariyasi» fanidan kurs ishini bajarish bo‘yicha uslubiy qo‘llanma. Toshkent, TMI, 2005 y.

8. Методические указания по выполнению и защите курсовой работы по экономической теории для студентов направления 38.03.02 Менеджмент (направленность «Маркетинг») составлены д.э.н., профессором В.А. Шабашевым, д.э.н., профессором Л.Л. Зобовой, к.э.н., доцентом Е. К. Евдокимовой. Ульяновский государственный университет, 2015

9. Методические указания по выполнению и защите курсового проекта по учебной дисциплине «Государственное регулирование экономики» Коломна 2017.

## **MUNDARIJA**

<b>KIRISH.....</b>	<b>3</b>
<b>MAVZUNI TANLASH.....</b>	<b>4</b>
<b>ADABIYoTLAR BILAN TANIShISH.....</b>	<b>5</b>
<b>KURS IShINI YoZISh TARTIBI.....</b>	<b>6</b>
<b>KURS IShINI HIMOYa QILISH.....</b>	<b>14</b>
<b>ILOVALAR.....</b>	<b>16</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYoTLAR RO‘YXATI.....</b>	<b>36</b>

SATTORQULOV OBIDQUL TURDIQULOVICH

**MAKROIQTISODIY TAHLIL VA PROGNOZLASHTIRISH**

fanidan kurs ishi yozish bo‘yicha  
**uslubiy ko‘rsatma**

Muharrir:

J. Urazmatov

Sahifalovchi:

D. Eshpo‘latov

Bosishga ruxsat etildi: \_\_\_\_\_ Qog‘oz bichimi  $60 \times 84 \frac{1}{16}$

Hisob-nashr bosma tobog‘i 2,3 b.t., Adadi 100 nusxa, Buyurtma №

---

Guliston davlat universiteti bosmaxonasida rizografiya  
usulida chop etildi.  
120100, GulDU., Guliston sh. 4-mavze.